TOSHKENT VILOYATI BEKOBOD SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 16 - noyabr 485-10-149-Q/22 Bekobod shahar hokimligi

Bekobod shahar, “Metallurg” MFY hududidan o`tgan, 4N749 “UMZ – Oq masjid qo‘rg‘oni” avtomobil yo‘lining PK3+00 dan PK4+00 oralig‘idagi qatnov qismining ikki tomoniga harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida 4 dona 3.27 “To`xtash ta’qiqlangan” yo`l belgisini o`rnatishga ruxsat berish to`g`risida

Bekobod shahar, “Metallurg” MFY hududidan o`tgan, 4N749 “UMZ – Oq masjid qo‘rg‘oni” avtomobil yo‘lining PK3+00 dan PK4+00 oralig‘idagi qatnov qismining ikki tomoniga harakat xavfsizligini ta’minlash, transport vositalari harakatini tartibga keltirish, piyodalar harakatini to`siqsiz va xavfsiz tashkil etish, yo`l transport hodisalarinining oldini olish maqsadida, Bekobod tuman yo`llardan foydalanish unitar korxonasining Bekobod shahar hokimligiga 2022-yilning 10-sentabr kuni 13/05-407-sonli xatini ko`rib chiqib hamda O`zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Bekobod tuman yo`llardan foydalanish unitar korxonasining Bekobod shahar hokimligiga 2022-yilning 10-sentabr kuni 13/05-407-sonli xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Bekobod shahar, “Metallurg” MFY hududidan o`tgan, 4N749 “UMZ – Oq masjid qo‘rg‘oni” avtomobil yo‘lining PK3+00 dan PK4+00 oralig‘idagi qatnov qismining ikki tomoniga harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida 4 dona 3.27 “To`xtash ta’qiqlangan” yo`l belgisini o`rnatishga ruxsat berilsin.

3. Bekobod tumani Yo`llardan foydalanish unitar korxonasi (B.Xusanov)ga:

- Bekobod shahar, “Metallurg” MFY hududidan o`tgan, 4N749 “UMZ – Oq masjit qo‘rg‘oni” avtomobil yo‘lining PK3+00 dan PK4+00 oralig‘idagi qatnov qismining ikki tomoniga harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida 4 dona 3.27

“To`xtash ta’qiqlangan” yo`l belgisini o`rnatish ishlarini amalga oshirsin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimi o`rinbosari O.Ergashov zimmasiga yuklatilsin.

Bekobod shahar hokimi v.b. **N.BABAYEV**